

BITIMLAR VA ULAR BILAN BOG'LIQ ASOSIY TUSHUNCHALAR

Qurbonova Sevara Zayniddin qizi

Termiz Davlat Universiteti Yuridik

Fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ma'lumki O'zbekiston fuqarolik jamiyatiga tobora kirib borayotgan ekan unda yuz beradigan har xil ijtimoiy munosabatlar zo'rlik va tahdid bilan emas balki fuqarolarning bir-biri bilan kelishuvlari va bitimlari asosida yuz beradi. Aynan bitimlar va shartnomalar orqali ijtimoiy munosabatlar yuz berishi va albatta ularning qonuniy jihatdan to'g'ri tuzilishi ularning ahamiyatini oshirish bilan birga davomli ravishda qo'llanishiga yordam beradi. Ushbu maqola doirasida esa 1 bitimlar, 2 ularning turlari, 3 shakllari va 4 tuzilishi jihatidan qonuniy talablariga kengroq to'xtalib o'tamiz.

Kalit so'zlar: bitim tushunchasi, bir tomonlama, ikki tomonlama, ko'p tomonlama, haq baravariga va tekinga tuziladigan, konsensual va real, kazualz, abstrakt, fidutsiar, sharti kechiktirilgan va bekor bo'lish sharti bilan tuzilgan bitimlar.

Kirish qismi: Bitimlar inson hayoti davomida turli xil munosabatlarga kirishayotganida albatta uning turli xil shakllarini tuzish orqali kira oladigan muhim institut hisoblanadi. Bitim-shartnomaning o'zagi hisoblanib, bundan bitta oltin qoidani shakllantirsak bo'ladi: ya'ni har qanday shartnoma bitim bo'la oladi lekin har qanday bitim shartnoma bo'la olmaydi. Bu qoida nima uchun bunday shakllanmaganini esa keying o'rinlarda tushuntirib o'tamiz. Bitim bu azaldan tomonlar o'rtasida tuziladigan va ularning kelishuvi va xohish-xohish irodasini o'z ichiga oluvchi hujjat yoki manba hisoblanib bunda taraflar o'zlari nima xohlayotgani va nimani maqsad qilib keltirib o'tganini ushbu bitimda namoyon etadilar. Va lekin har qanday xohish uchun ham bitim qo'llanmasligi va taraflar bunga rozi bo'lmasligi aniq. Shuning uchun ham adabiyotlarda "bitimlar jismoniy va yuridik shaxslarning ongli, aniq maqsadga qaratilgan, erk-irodasi asosidagi xatti-arakatlari bo'lib, ularni amalga oshirish orqali ular muayyan huquqiy oqibatlariga erishishga intiladilar"⁶⁴ -deya ma'lumotlar beriladi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida bitimlar huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim institutlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 101-moddasida bitimlar deb fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish va bekor qilishga qaratilgan harakatlariga nisbatan aytilishi belgilab qo'yilgan⁶⁵. Bitimlar doimo shaxslarning erk-irodasi bilan bog'liq bo'ladi va ular

⁶⁴ Rahmonqulov X.R. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksiga sharh. 1-jild. T., 2010 – B.292.

⁶⁵ O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING FUQAROLIK KODEKSI umumiy qism - <https://lex.uz/mact/-111189>

muayyan bir huquqiy oqibat tug'dirishga qaratilgan bo'ladi. Bitim tuzishdan muayyan huquqiy oqibat yuzaga kelishi uchun uni tuzuvchilar nafaqat bitimda o'z erklarini ifodalashlari balki muayyan harakatlarni ham bajarishlari lozimdir. Masalan, shart qilingan ishni bajarishi, ma'lum bir mulkni topshirishi yokida ma'lum pulni to'lashi.

Fuqarolik huquqida bitimlar tuzilishiga ko'ra og'zaki va yozma bitimlarga bo'linadi. Fuqarolik kodeksining 106-moddasiga ko'ra, Qonunchilikda yoki taraflarning kelishuvida yozma shakl belgilab qo'yilmagan, jumladan u tuzilayotgan vaqtning o'zidayoq bajariladigan bitim og'zaki tuzilishi mumkin. Yozma shakldagi bitimlar ham o'z navbatida oddiy yozma va notarial tartibda tasdiqlanadigan bitimlarga bo'linadi. Oddiy yozma bitimlar bu barchamiz bilganimizdek, formulyatsion tartibsiz yoki ma'lum bir standartlarsiz erkin ravishda tuzilada va shu bois uning shakliga rioya qilmaslik bitimning haqiqiy emasligiga olib kelmaydi, biroq ushbu bitim yuzasidan nizolar paydo bo'ladigan bo'lsa taraflar bitim tuzilganligi yoki barajilganligini guvohlar yordamida isbotlash huquqidan mahrum bo'ladi. Oddiy yozma shaklga rioya qilmaslik Qonunda yoki taraflar kelishuvida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan hollardagina bitim haqiqiy sanalmasligiga olib kelishi mumkin. Qonunchiligimizga binoan, bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan ortiq summadagi bitimlar, qonunda belgilangan hollarda esa bitim summasidan qat'iy nazar oddiy yozma tartibda tuzilishi mumkin.

Qonunda bitimlarning ikki holda notarial tartibda tasdiqlanishi ko'rsatilgan bo'lib, biri qonunda belgilab qo'yilgan hollarda bo'lsa, ikkinchisi taraflardan birining talabi bo'yicha bo'lishi mumkin. Bitimning oddiy yozma shaklidan farqli o'laroq notarial tartibda tasdiqlanadigan bitim shartlariga rioya qilmaslik uning o'z o'zidan haqiqiy emasligiga olib keladi.

O'zining subyektiv va obyektiv belgi va xususiyatlariga ko'ra bitimlar fuqarolik huquqi fanida ma'lum turlarga bo'linadi. Ya'ni bitimni tuzuvchilarning erklari ifodalanishiga, muqobil ijroning bo'lish yoki bo'lmasligiga, bitimlar qay vaqtdan tuzilgan deya hisoblanishiga, undan qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi va ishonchga asoslangan yoki yo'qligiga ko'ra turlarga ajratiladi.

Bitimlar ularni tuzuvchilarning erklari ifodalanishi, hususiyatlariga ko'ra bir tomonlama, ikki va ko'p tomonlama bitimlarga bo'linadi.

Agar bitimda faqat bir tarafning erki ifodalansa yoki huquq va majburiyat faqat bir tarafning irodasi bo'yicha vujudga kelsa, o'zgarsa yoki bekor bo'lsa unda u **bir tarafdama bitim** hisoblanadi. Ya'ni bitimni tuzish uchun bir tarafning xohishi zarur yetarli bo'lishi. Bunga misol qilib, ishonch qog'ozi berish, meros qoldirish yoki merosdan voz kechishni keltirish mumkin.

Agarda bitim har ikki tarafning erkiga binoan tuzilsa, bunday bitim **ikki tarafdama bitim** hisoblanadi. Masalan, sug'urta, oldi-sotdi, mulk ijarasi va boshqalar⁶⁶.

⁶⁶ Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi – T., 2006. – B.159.

Ko`p taraflama bitim deyilganda esa uch va undan ortiq shaxslarning xohish irodasiga binoan tuzilishi nazarda tutiladi.

Muqobil ijrosining bo`lish yoki bo`lmasligiga ko`ra bitimlarni biz haq baravariga yoki tekinga tuzilgan bitimlarga ajratishimiz mumkin.

Taraflardan har biri qarshi tomon foydasiga muayyn bir mulkni topshirishi, pul to`lashi, ishni bajarishi yoki xizmat ko`rsatishi talab qilinsa bunday bitim **haq baravariga tuzilgan** hisoblanadi. Masalan, ayirboshlash, oldi-sotdi, sug`urta va boshqalar.

Tekinga tuziladigan bitimlarda esa taraflardan biri ikkinchi taraf foydasiga biror harakat bajarishga majbur bo`ladi. Bunga misol qilib, hadya, mulkdan tekin foydalanish, foizsiz qarzlarni keltirib o`tish mumkin.

Bitimlar qaysi vaqtdan tuzilgan deb hisoblaniga ko`ra konsensual va real bitimlarga bo`linadi.

Konsensual bitimda taraflar o`z huquq va majburiyatlarini o`zaro kelishib olgan vaqtdan u tuzilgan hisoblanadi. Kontraktatsiya, mulk ijarasi, pudrat shartnomalari shular jumlasidan.

Real bitimlarda asosan ashyo bilan bog`liq bo`ladi va shu bois taraflar kelishuvlariga muvofiq ashyo yoki pulni topshirgan paytdan yuzaga keladi. Masalan, qarz, yuk tashish shartnomasi va omonatni saqlash kabilar.

Shuningdek bitimlar undan ko`zlanayotgan maqsadlarning aniqlilik darajasiga ko`ra kazual va abstrakt kabi turlarga bo`linadi.

Agar bitimda uning qanday maqsadda tuzilayotgani va undan qanday maqsad ko`zlanayotgani aniq ko`rinib turgan bo`lsa bunday bitim **kazual** hisoblanadi.

Abstrakt bitimlarda esa go`yo bitim asosidan uzilib qolgan huquq va majburiyatlarni vujudga keltiruvchidek hisoblanadi⁶⁷.

Bundan tashqari bitim agar ishonchga asoslangan bo`lsa **fidutsiar**, teskarisi bo`lsa fidutsiar bo`lmagan bitim hisoblanadi.

Agar bitimda uning amalga oshirilishi yoki bekor bo`lishi biron-bir shartga bog`lab qo`yilsa, unda bunday bitimlar shartli bitimlar hisoblanadi va ular ham o`z navbatida sharti kechiktirilgan va bekor bo`lish sharti bilan tuzilgan bitimlarga bo`linadi.

Fuqarolik kodeksining 104-moddasiga ko`ra, tomonlar o`rtasidagi huquq va majburiyatlarning yuzaga kelishi sodir bo`lishi yoki bo`lmasligi aniq bo`lmagan holatga bog`liq qilib qo`yilsa, bitim **sharti kechiktirilgan** bitimlar hisoblanadi.

Kodeksing ushbu moddasi ikkinchi qismiga ko`ra esa, tomonlar o`rtasidagi huquq va burchlarning bekor bo`lishi yuz berishi yoki bermasligi noma'lum holatga bog`lab qo`yilsa unda bunday bitimlar **bekor bo`lish sharti bilan tuzilgan bitimlar** sanaladi.

⁶⁷ V.R.Topildeyiv – fuqarolik huquqi – T., 2022. – B. 260.

Bir qarashda bitim tuzilishi, shakli jihatidan shartnoma bilan bir xildek ko`rinishi mumkin. Biroq yuqorida aytib o`tilganidek har qanday shartnoma bitim bo`lishi mumkin, biroq har qanday bitim ham shartnoma hisoblanmaydi. Negaki fuqarolik kodeksimizga ko`ra shartnoma doimo ikki yoki undan ortiq shaxslarning kelishuvi asosida amalga oshiriladi. Bitim esa bir tarafning xohishiga ko`ra ham bo`lioshi mumkin. Shartnomani tuzishda bir tomon uni offerta ya`ni taklif qilsa ikkinchi taraf uni akseptlashi lozim. Bitimdan farqli ravishda shartnomada taklifga binonan boshqa tarafning akseptlash jarayonidagi sukuti uni qabul qilganidan dalolat bermaydi. Chunki bitimda xalqimiz qadimdan qo`llab keladigan “sukut alomati rizo” iborasi amal qiladi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, jamiyat undagi insonlarning ijtimoiy munosatlariga asoslangan va har bir shaxs boshqa shaxslar bilan bu munosabatlarga kirishar ekan albatta ular bilan turli xil kelishuvlar ya`ni bitimlar tuzishlari tabiiy albatta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi-1995-yil 21-dekabr.
2. www.Lex.uz -sayti.
3. Fuqarolik huquqi darslik – V.R. Topildiyev 2022-yil, Toshkent.
4. O`zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksiga sharh – X.R. Rahmonqulov – T., 2010.
5. Fuqarolik huquqi – I.B. Zokirov – T., 2006.